



BURG‘ULUK MADANIYATI VA UNING XUSUSIYATLARI

Quvondiqova Mehriniso Xolbota qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Toshkent vohasida joylashgan ilk dehqonchilik manzilgohi bo’lgan Burg‘uluk madaniyati va uning xususiyatlari haqida so’z boradi. Burg‘uluk madaniyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijasida vohaning qadimgi shaharlari tashkil topgan.

Kalit so’zlar: Burguluk madaniyati, Toshkent vohasi, Burg‘uluqsoy, A. Terenojkin, A. Asqarov, X. Duke, M. Filonovich, Choch dehqonchilik vohasi, dastlabki shaharlar, qishloq makonlari, yerto’la uylar, Andronova madaniyati.

Burg‘uluk madaniyati – Toshkent vohasidagi ilk dehqonchilik manzilgohi bo’lib, mil. avv. IX-IV asrlar bilan davrlanadi. Bu madaniyatga tegishli yodgorlik dastlab Toshkent dengizi atrofidagi Burg‘uluqsoy bo‘ylab topilgani uchun Toshkent vohasidagi qadimgi dehqonchilik madaniyatiga shu nom berilgan. Manzilgohda ilk bor 1940-yilda A. I. Terenojkin qazish ishlarini olib brogan[5].

Burg‘uluk madaniyati ikki bosqichda rivojlangan:

1-bosqich mil avv. IX–VIII asrlarga oid bo‘lib, bunda aholi yarim yerto’la, chaylalarda yashab dehqonchilik qilganlar.

2-bosqich mil.avv. VI –IV asrlarga tegishli bo‘lib, bunda aholining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tub o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Endilikda aholi guvala va xom g‘ishtdan kulbalar qurbanlar, ular oval, aylana, to‘g‘ri to‘rt burchak va kvadrat shaklida bo‘lib, ularning o‘rtacha maydoni 12–15 kv.m. bo‘lgan[4]. Kulbalar asosan bir xonali bo‘lib, 2 xonali kulbalar kam uchraydi. Qishloqlarning atrofini mudofaa devorlari bilan o‘rab olganlar va dehqonchilikda sun’iy sug‘orishdan foydalanganlar.



Burg‘uluq madaniyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi natijasida vohaning qadimgi shaharlari tashkil topgan. Burg‘uluq manzilgohi Farg‘ona vodiysidagi Chust yodgorligiga yaqin hisoblanadi. Bu yer aholisi yerto‘lalarda yashaganlar. Ularning mehnat qurol- yarog‘lari jez va toshdan yasalgan. Burg‘uluq madaniyati yodgorliklari Farg‘ona vodiysidagi Chust madaniyati, Surxondaryodagi Kuchuktepa, Mirshodi, Bandixon, Jarqo‘ton, Janubiy Turkmanistondagi Yoztepa va Shimoliy Afg‘onistonidagi Tillatepa yodgorliklariga ko‘p jihatdan o‘xshashdir.

Keyingi yillarda X.Duke va M.Filonovichlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning davrlari aniqlandi. 1972-yilda X.Duke Tuyabo‘g‘iz suv omborining qurilishi munosabati bilan Ohangaron daryosining chap sohilida taqiqot ishlari olib bordi va shu madaniyatga tegishli 14 ta qishloq va 60 ga yaqin yarim yerto‘la va chayla tipidagi kulbalarning qoldiqlarini topib o‘rgandi[1].

Arxeolog-olim tadqiqotlar natijasida Burg‘uluk madaniyatining birinchi bosqichini aniqladi. Mazkur madaniyatning ikkinchi bosqichi esa, 1978–1982 yillarda Shoshtepada olib borilgan keng stratigrafik qazishmalar natijasida M. Filonovich tomonidan aniqlandi.

1981 yilda shu madaniyatga tegishli bir qabr topildi. Unda marxum oyoq-qo‘llari buklagan holda chap yoni bilan boshi shimolga qaratib yotqizilgan. Mozordan bitta sopol idish chiqqan. Skelet ustida bir qator xom g‘ishtlar qo‘yilgan.

Burg‘uluk madaniyati qishloqlarini qazish vaqtida behisob sopol parchalari, qumtoshdan yasalgan o‘roqsimon pichoqlar, bronzadan yasalgan o‘roq va pichoqlar, bigiz, oyna, ignalar topilgan. Tosh qurollari nihoyatda ko‘plab topilgan, ular orasida yorg‘uchqolar, tosh o‘g‘ir va o‘g‘ir soplar ko‘plab uchraydi. Sopol idishlar ko‘pol va mo‘rt bo‘lgan, chunki ular qo‘lda yasalib, ochiq gulxnlarda pishirilgan. Ularning turi ko‘p bo‘lmagan. Ular osti yassi qilib ishlangan kosalar, tuvakcha va xurmachalardan, quloqli sopol qozonlardan iborat bo‘lgan. Sopol idishlarning sirtiga och qizil angob berilib, so‘ng pardozlangan. Uning ustidan idishlarning gardishi bo‘ylab och qora yoki och qizil rangda oddiy chiziqlardan iborat gullar



solingen[2].

Burg‘uluk 2-bosqichidan qadimgi Toshkent vohasi dehqon jamoalari olovga e’tiqod qilishgan. Burg‘uluk madaniyati Toshkent voxasining eng qadimgi dehqon jamoalarining madaniyati bo‘lib, ana shu madaniyat asosida keyingi asrlarda Toshkent vohasida urbanizatsiya protsessi rivojlandi. Sirdaryoning o‘rta xavzasida so‘nggi bronza va ilk temir davrida burg‘uluk madaniyati shakllanib, uning asosida antik davrga kelib qadimgi Choch dehqonchilik vohasi vujudga keldi.

A. Asqarov va M. Filanovich Shosh moddiy madaniyat tarixini Shoshtepa materiallari asosida 2 bosqich – Burg‘uluq madaniyatining tugallanish bosqichi (mil. avv. VI-IV asrlar) va Burg‘uluq madaniyatining Qovunchi madaniyatiga o‘tish bosqichi (mil. avv. III-II asrlar)ga ajratadi[3].

Hozirgi vaqtida Toshkent vohasidagi Burguluk madaniyati arxeologik materiallarga ko‘ra miloddan avvalgi XII asrga qadar qadimiylashtirildi. Tadqiqotchilar uni dehqonchilik madaniyati ekanligini e’tirof etgan holda uning kelib chiqishi haqida turli fikrlarni bildiradilar. Bularning ichida Andronovo madaniyatiga mansub qabilalarning janubdan va ehtimol sharqdan, Sharqiy Turkiston tomondan madaniy ta’sir ko‘rsatilishi natijasida o‘troq hayotga o‘ta boshlaganliklari haqidagi faraz to‘g‘ri bo‘lishi mumkin[5].

Burg‘uluk madaniyatiga oid qishloqlardan biri Toshkentning janubiy qismida Jo‘n kanali bo‘yida topilgan. Arxeologik topilmalarga ko‘ra uni miloddan avvalgi IX-VI-asrlar yoki undan ham qadimiyroq davrga oid deb hisoblash mumkin. Xo‘jalikda chorvachilik muhim rol o‘ynaganligi, chorvaning asosini yirik va mayda qoramol, otlar tashkil etganligi aniqlandi. Qishloq aholisi tabiat kuchlariga va hosildorlik ma’budlariga topinganlar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Burg‘uluk madaniyati Toshkent vohasining eng qadimgi dehqon jamoalarining madaniyati bo‘lib, ana shu madaniyat asosida keyingi asrlarda Toshkent vohasida urbanizatsiya protsessi rivojlandi. Sirdaryoning o‘rta havzasida so‘nggi bronza va ilk temir davrida



burg‘uluk madaniyati shakllanib, uning asosida antik davrga kelib qadimgi Choch dehqonchilik vohasi vujudga keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Boboyeva M. Q., Qurbongaliyeva R.S. Qadimgi dunyo tarixidan izohli lug‘at. Toshkent. 1992. 78-79-b.
2. Boynazarov F.A. Qadimgi dunyo tarixi. Toshkent. 2004. 119-125-b.
3. Ergashev Sh. Qadimgi sivilizatsiyalar. Toshkent. 2016. 87-92-b.
4. Kabirov A. Qadimgi Sharq tarixi. Toshkent. 2016. 126-130-b.
5. www.wikipedia.org internet sayti.